

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TAMOYILLARI

Karimova Mahliyo Sultankulovna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 17- sonli DMTT direktori

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiya holatiga qarshi kurashish va uni oldini olishda xorij tajribasi va davlatimiz tomonidan chiqarilgan meyoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilib berilgan.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida yangilanayotgan jamiyatda adolat va qonun ustivorligi masalasida maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tadrijiy bosqichi tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar: Yo'l xarita, Korrupsiya, Maktabgacha ta'lim tizimi, pedagog kadrlar, ta'lim sifati.

PRINCIPLES OF FIGHTING AGAINST CORRUPTION IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Abstract

The article analyzes the foreign experience in combating and preventing corruption in the preschool education system and the regulatory legal documents issued by our state.

In the new development strategy of Uzbekistan, the gradual stage of the reforms implemented in the field of preschool education was analyzed in the issue of justice and rule of law in the renewed society.

Key words: Road map, Corruption, Pre-school education system, teaching staff, quality of education.

O'zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustivorligini oliy darajaga ko'tarish, zamonaviy samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat hizmatchilarida korrupsiyaviy holatlarning barcha ko'rinishlariga qat'iy chidamsizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so'zsiz ta'minlash kabi yuksak g'oyalarga tayanmoqda. Avvalo, ushbu islohotlarning tub zamirida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ustivor g'oya «**Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak**» asosiy tamoyilga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlarini yo'lida safarbar etilishi ustivor vazifa etib belgilanmoqda.

Bu o'rinda islohotlarning chinakam natijadorligiga erishish maqsadida davlat va jamiyatning har bir sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini izchil ta'minlab borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining oqibati bilan emas, balki sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha xalqaro tajribada keng qo'llanilib kelayotgan zamonaviy jinoyatchilikni oldini olish choralarni milliy amaliyotga tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

«Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishda pedagog kadrlar va ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda korrupsiyaga qarshi ham ayovsiz kurashib kelinmoqda. Korrupsiya maktabgacha ta'limda shunchalik tizimli tus olganki, uni metall zangiga o'xshatish mumkin. Qachonki zang metallni yemira boshlasa, ish jarayoni to'xtamasligi uchun metallning o'sha qismini butunlay boshqasiga almashtirish kerak bo'ladi», – dedi maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin.

Bu o'rinda Prezidentning 2020 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6013-sonli Farmonga asosan yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonlari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Ayni paytda vazirlik Bosh prokuratura va Hisob palatasi bilan maktabgacha ta'lim tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurash ishlarini olib bormoqda; «Yo'l xaritasi» ishlab chiqilgan.

Shuningdek, vazirning aytishicha, 26 yil maktabgacha ta'lim tizimiga yetarli e'tibor berilmagani ham korrupsion holatlar ko'payishiga sabab bo'lgan.

Vazirlikning ichki audit, moliyaviy va huquqiy nazorat xizmati, vazirlikning tizimda korrupsiyaga qarshi kurashishda hozirga qadar qilingan eng muhim ishi – maktabgacha ta'lim tizimida jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning ishlashini cheklashdan iborat.

«Bu – «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunda belgilandi. Biz qilgan tahlillar bog'cha mudirasi sifatida jinoyat sodir qilib ham o'z lavozimidan ketmasdan ishlab yurganlar ko'pligini ko'rsatdi. Ma'lumot uchun, yuqoridagi qonunning 44-moddasiga ko'ra, qasddan jinoyatlar sodir etgani uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Bu borada xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati shu jumladan maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini korrupsiyaga qarshi

kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Komplayens nazorat tizimi ilk bor AQSHda 1906 yilda vujudga keldi. Bunga zaruriyat mamlakat iqtisodiyotida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporasiyalarning tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan bugungi kunlargacha yirik kompaniyalar bilan bo'lgan nizoli vaziyatlar (Volkswagen, Daimler, Siemens (Germaniya) Odenbrecht, Petrobras (Braziliya), Samsung Group, Hyundai Motor Co. (Koreya Respublikasi), BAE Systems (Buyuk Britaniya), Baker Hughes Inc, Panalpina World Transport (AQSH) va boshqalar) xususiy sektorda korrupsiyaga kurashish tizimlarni tubdan isloh etishni taqozo qildi.

Mazkur tajriba samaradorligi bilan ajralib turadi va asosan yirik iqtisodiy salohiyatga ega AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar amaliyotiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aksariyat xorijiy davlatlarda komplayens nazorat tizimi alohida qonun hujjati tartibga solingani ahamiyatga molikdir. Misol uchun AQSHda "Xorijda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Akt" (Foreign Corrupt Practices Act, 1977), "Sarbeynz-Oksli Akti" (Sarbanes-Oxley Act, 2002), "Dodd-Frank Akti" (Dodd -Frank Act, 2010) nomli qonun hujjatlarida AQSH bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporasiya va kompaniyalarning o'z tarkibida komplayens nazorat tizimini tashkil etishni majburiy qoida sifatida belgiladi.

Bu o'rinda ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan Sloveniya qonunchiligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, 2014 yil 26 aprelida qabul qilingan "Sloveniya davlat xoldinggi akti to'g'risida"gi (Slovenian sovereign holding Act, 2014) Qonunida komplayens nazorat tizimining maqomi va vakolatlari belgilangan.

Qonunning o'ziga xosligi shundaki, unda komplayens xizmatida kadrlar masalasiga (**compliance officer**) to'xtalib o'tilgan hamda kompaniya ichidagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabardor etishga (**whistleblowing policy**) aniq qoida va tartibni keltirib o'tadi.

Davlatimizning korrupsiyaga qarshi qonunchiligida komplayens nazorat tizimi amaliyotining kirib kelishi O'zbekiston Respublikasi 27.05.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmonida ushbu sohada belgilangan asosiy vazifalardan biri etib, ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda qarshi kurashish choralari kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Ushbu normativ hujjatlar ilk bor komplayens nazorat tizimini milliy darajada joriy etish masalasi ko'tariladi.

Farmon asosida 2019 yildan boshlab BMT Taraqqiyot dasturining “O‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va oshkora boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish” loyihasini amalga oshirish doirasida Bosh prokuratura, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ustav jamg‘armasida davlat ulushi 100% yoki 50% dan yuqori bo‘lgan faoliyati xorijiy bozor bilan integrasiyalashgan bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatida tajriba sifatida komplayens nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha “White and Case” (AQSH), KPMG (Italiya) xalqaro auditorlik kompaniyalari ishtirokida xalqaro tender jarayonlari o‘tkazildi.

Shuningdek, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda vazirlikning munosib ishtirokini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim vazirligining komplaens-nazorat bo‘limi faoliyatini samarali tashkil etish, xodimlarning malakasini oshirish va boshqa masalalar yuzasidan hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, davlat va xususiy sektor faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish «komplayens nazorat» tizimini joriy etishning qator samarali omillarga xizmat qiladi.

Jumladan, maktabgacha ta‘lim tizimida korrupsiya xavf-xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 29 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6013-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasini 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
5. 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi,
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi 2021-yil 11-yanvardgi 12-sonli buyrug‘i .
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida NIZOM
8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining “2021 yilda Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisoboti”.